

## ASQAR MAHKAM IJODIDA HAYOT FALSAFASI

Baxtiyorova Gulshoda Jo‘rabekovna,  
Urganch davlat universiteti Filologiya va san‘at  
fakulteti 3-bosqich talabasi

PHILOSOPHY OF LIFE IN THE WORKS OF ASKAR  
MAHKAM

Bakhtiyorova Gulshoda Jurabekovna,  
third year student of Urgench state university, faculty  
of Philology and art

ФИЛОСОФИЯ ЖИЗНИ В ТВОРЧЕСТВЕ АСКАРА  
МАХКАМА

Бахтиёрова Гульшода Джурабековна,  
Студентка 3 курса Ургенчского государственного  
Университета факультет филологии и искусства

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iste’dodli shoir Asqar Mahkam ijodida biz yashab turgan hayotga munosabat, shoirning komil inson to‘g‘risidagi qarashlari va ijodkorning she‘riyatida aks etgan hayot chizgilari tadqiq etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Asqar Mahkam, do‘st, diyonat, xiyonat, dunyo, inson, yaxshilik, yomonlik, hidoyat.

**Annotation.** In this article, the attitude to the life we live in the work of the talented poet Askar Mahkam, the poet’s views on the perfect person and the image of life reflected in the artist’s poetry are studied.

**Key words:** Askar Makhkam, friend, religion, betrayal, the univers, person, goodness, badness, guide.

**Аннотация.** В данной статье исследуются отношение к той жизни, которой мы живём в творчестве талантливого поэта Аскара Махкама, взгляды поэта на идеального человека и образ жизни отраженный в поэзии художника.

**Ключевые слова:** Аскар Махкам, друг, религия, предательство, мир, человек, добро, зло, руководство.

**KIRISH.** Badiiy adabiyot go‘zallik va nafosat qoidalari asosida hayotni o‘zida aks ettiruvchi suratdir. Lekin bu hayot voqeahodisalarini har kim har xil ko‘radi. Yuz beradigan jarayonlar har insonga turlicha ta‘sir qiladi. Har birimizning dunyoqarashimiz, qanday yashash haqidagi fikrlarimiz turlicha. Binobarin, har qaysi shoirning dunyoni qanday ko‘rishi va unga munosabatida farqli bo‘ladi. Jumladan, qalami o‘tkir shoir Asqar Mahkamning ham bu dunyo, davr hamda hayot haqidagi qarashlari boshqa ijodkorlarnikidan keskin farq qiladi. Chunki u o‘z lirikasida hayotning qora chizgilarini qalamga oladi. Umr so‘qmoqlaridagi nohaqliklarni, nodonliklarni, zolimliklarni va adolatsizliklarni, xiyonatlarni boricha qog‘ozga to‘kadi. Bejiz uning o‘zi: “Men shoir emas rostgo‘y edim”<sup>1</sup>, deb aytgan emas. Shoir guvohi bo‘lgan ana shunday achinarli holatlarni

qayg‘u-alam, kuyinish bilan tilga oladi. Insonlarga ko‘zgu tutadi. Ularning umri davomida bir marta qilgan yomonliginimi, johilliginimi yoki gunohinimi esiga soladi. Qalbida ozgina ezgulik urug‘i saqlanib qolgan insonlar, albatta, uning satrlarini o‘qib nadomat chekadilar. O‘zlarini isloh qilishga bel bog‘laydilar. Asqar Mahkam ijodiyoti orqali odamlarni ezgulikka, samimiylikka da‘vat etadi. Nafsga qullik, xiyonat, zulmkorlik, ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik va soxtalikni qattiq qoralaydi.

**MUHOKAMA.** Shoirning she‘rlari zulm va adolatsizlikni qoralaydi. Insoniylikni targ‘ib qilib, ma‘rifatga da‘vat etadi. Shu bilan birga, dunyoning buqalamunligidan ogohlikka chorlaydi. Ana shunday pafos yetakchilik qilgan she‘rlariga misol qilib “Nadomat”, “Eng so‘nggi on...”, “Muammo”,



<https://orcid.org/0009-0006-6001-0325>

[gulshodabaxtiyorova06@gmail.com](mailto:gulshodabaxtiyorova06@gmail.com)

<sup>1</sup> “Yoshlik” jurnali. 2018-yil, 10-son.

“Do‘stlar sotqin chiqdi...” kabilarni keltirishimiz mumkin.

Yonganlarim, kuyganim ketdi,  
topganlarim, tutganim ketdi.

Ko‘zim oqib, ko‘r-u kar bo‘lib  
tutmaganim, kutganim ketdi...<sup>2</sup>

Purma‘no baytlar sohibining “Nadomat” she‘ridan olingan yuqoridagi misralarda bu dunyoning o‘tkinchiligi, bevafoqligi tasvirlanadi. Lirik qahramon yaqin insonlari, do‘stlarining dardi bilan yashaydi. Ularning yaxshi-yomon kunida yelkadosh bo‘ladi. Ular uchun yonib-kuyadi. Biroq ana shu yonib-kuyganlari vaqti kelganda uni tashlab ketadi, yuz o‘giradi. Bu bilan do‘stlikka, umuman olganda insoniylikka xiyonat qiladilar. “Topganlarim, tutganim ketdi”. Odamzod umri davomida tinmay mehnat qiladi, zaxmat chekadi, qiyinchilik-u mushkulotlarga bardosh berib, halol boylik orttiradi. Ba‘zi insonlar bu boylikni egri yo‘llar bilan ham orttirishi mumkin. Bunday holatda birinchi toifa insonlar savobga, ikkinchi toifa insonlar gunohga ega bo‘ladilar. Lekin har ikki vaziyatda ham inson boylikni saqlab qololmaydi. Davlat sarf bo‘ladi, yelga uchadi yoki to‘ abad joriy sadaqa qiluvchilarga savob yetkazib turadi, garchi sadaqa qiluvchi dunyodan o‘tgan bo‘lsa ham. Xullas, davlat boqiy emas. Ba‘zi insonlar kimnidir yoki nimadir kutadi. Intiqlik bilan, butun vujudi ko‘zga aylanib kutadi. O‘zgalarning ta‘na-yu dashnomlariga parvo qilmay, kar bo‘lib kutadilar. Lekin ularning kutgan narsalari yoki kimsalari bir kunmas, bir kun ketadilar. Xoh o‘z xohishlari bilan bo‘lsin, xoh taqdirning yozganlari tufayli bo‘lsin. Intizorlik bilan kutilmagan narsalar ham, insonlar ham xuddi shunday. Bu dunyoda hech narsa boqiy emas, dunyo nayrangboz va bevafo.

Ko‘kdan kitob indi...Zamonga qarab  
valiylar soch yuldi...Bari samarsiz.

Yomonlik avj oldi olovdek yashnab,  
yomonlik yashadi payg‘ambarlarsiz.<sup>3</sup>

Yuqoridagi misralar serqirra ijodkor Asqar Mahkamning “Muammo” nomli she‘ridan olingan. Bunda shoir barcha davrlar uchun muammo hisoblangan yomonlikning umri bunchalar uzun ekanligiga hayron qoladi. Yomonlikning payg‘ambarlari yo‘q, avliyolari ham yo‘q. O‘tgan buyuk ajdodlarimiz, ulug‘lar har doim insonlarni

yaxshiliklar tomon da‘vat qilganlar. Lekin insoniyat payg‘ambarlari yo‘q bo‘lgan, da‘vat qilinmagan yo‘l - yomonlik sari bordilar. Yomonlik olovdek avj oldi. Berilgan satrlar esa ilohiy kitoblarga ishora bilan boshlanadi. Hammamizga ma‘lumki, insonlarni hidoyatga boshlash uchun turli davrlarda payg‘ambarlarga Tavrot, Zabur, Injil kabi muqaddas kitoblar yuborildi. Lekin o‘z davrida ularning mazmuni o‘zgartirib talqin qilindi. Eng oxirda esa Qur‘oni karim yuborildi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) insonlarni ana shu muqaddas kitobdagi shariat qoidalariga rioya qilib yashashlikka da‘vat etdi. Biroq insoniyat baribir payg‘ambari yo‘q bo‘lgan yomonlik tomon yuraverdi. Avliyolar-u payg‘ambarlar ularni to‘g‘ri yo‘lga solishga qanchalik urinishmasin, bari befoyda bo‘ldi. Bu hodisa har bir payg‘ambar davrida takrorlandi. Dastlab ko‘pchilik ezgulik tomon qadam bosib, keyinchalik yana fisq-u fujur, zulm va qabihlik avj oldi.

Yana bir “Eng so‘nggi on” she‘rida lirik qahramon dunyoning buqalamunligidan shikoyat qiladi:

...Bular odam emas, demasdim,  
tug‘ishganim derdim hammani...

Men ham bunday yolg‘iz emasdim,  
mehribonim bor edi...Qani!..  
O‘zgarmading, ey dahri qadim...  
hech mukammal bo‘lmading, olam...  
Men hech kimni taniyolmadim,  
biror yerda bormikan Odam!..<sup>4</sup>

Misralarda insonlarning va olamning asl qiyofasini ko‘rgan odamning ichki kechinmalari aks etgan. U odamlarning ikkinchi bir yuzini ko‘rgach “bular odam emas”, degan xulosaga keladi. Lekin bundan avval barcha-barchani tug‘ishganim deb bilardi. Ana shu yaqinim deb bilgan insonlarining aslida qandayligi oshkor bo‘lgach o‘zlarini yolg‘iz hamda begona kabi his qiladi. “Mehribonim” deb bilganlari soxtakor bo‘lib ko‘rinadi. Lirik qahramon qadim dunyoga murojaat qilib hech o‘zgarmaganligini, mukammal bo‘lmaganligini aytadi. Atrofidagilarni taniy olmaydi. Biror joyda haqiqiy odam bormikan yoki yo‘qmikan, deb o‘ylab qoladi.

Do‘stlar sotqin chiqdi,  
dushman razilroq...

Hammasiga yetmay toshim, tupugim,

<sup>2</sup> A.Mahkam. Bu ishq edi. Toshkent: “Tafakkur”\_2017-y, 59-bet.

<sup>3</sup> A.Mahkam. Bu ishq edi. Toshkent: “Tafakkur”\_2017, 148-bet.

<sup>4</sup> A.Mahkam. Bu ishq edi.T.: 2017-y, 126-bet.

ketib olay deya bu yerdan tezroq

Tuproq ko'chalarda itdek yugurdim.<sup>5</sup>  
Xalqimizda "tosh otmoq", "tupurmoq" degan iboralar bor. Ular biror narsadan, kimsadan yoki holatdan juda qattiq nafratlanganimizda aytiladi. Yuqoridagi misralarda esa shoir sotqin do'stlarga, razil dushmanlarga "tupuradi", "tosh otadi". Hattoki hayoti davomida shunchalik ko'p ana shundaylarni uchratadiki, toshi-yu tupugi hammasiga yetmaydi. Bundaylar orasida bo'lish lirik qahramonni behuzur qiladi. Oxir oqibat u bunday joylardan tezroq ketish uchun "tuproq ko'chalarda itdek yuguradi". Ya'ni kamtarona hayot va ijod yo'lini tanlab, xalq uchun xizmat qiladi. Misralardagi it timsolini tasavvuf nuqtayi nazari bilan izohlasak, to'g'ri ma'no anglashiladi. Hayotda inson har doim ham yaxshi va diyonatli insonlarga, sodiq va vafodor do'stlarga duch kelavermaydi. Qanchadan qancha shoirlar "kajraftor falak" deb bejiz baytlar bitmagan. Haqiqatdan ham umr so'qmoqlari bir tekis emas, ularda turli xil to'siqlarga duch kelamiz, ruhimiz cho'kkanday bo'ladi. Lekin hech qachon cho'kib qolmaydi, chunki u ilohiy. Do'stlarning sotqinligiga, xiyonatiga uchraymiz qalbimiz og'riydi, lekin hech ham yashashga umidimizni, hamma insonlarga ishonchimizni butunlay yo'qotmaymiz. Ammo bularning barchasi o'tib ketsa-da, yuragimizda u yaralarning chandiqlari saqlanib qoladi. Dunyo ulkan bir tegirmon tosh, hamma unda yanchilib kelgan.

Dunyo goho tevadek yovvosh,  
goho itdek qopog'on ekan.<sup>6</sup>

Yuqoridagi misralarda ijodkor dunyoni tegirmonga toshga, yovvosh tevaga va qopog'on itga o'xshatadi. Haqiqatdan ham inson umri davomida tegirmonga tushib yashaydi, ya'ni turli mashaqqatli sinovlarni boshidan o'tkazadi. Gohida quvonadi. Shodliklarga to'la kunlari bo'ladi. Gohida esa turmush qiyinchiliklari tinka-madorini quritadi. O'zi ishongan yaqin insonlarining xiyonatiga duch keladi. Ish faoliyatida yoki shaxsiy hayotida muammolar bo'ladi. Adolat izlaydi, lekin topa olmaydi. O'zgalar undan manfaatlari uchun foydalanadilar. Hayot tegirmonida ezilaveradilar. Ana shunday mushkulotlarni o'z kuchi, mehnati, sof vijdoni bilan yengib o'tganlarga "oliy navli un" - chin inson bo'ladi.

**NATIJALAR.** Shoir o'zining noyob iste'dodi, o'tkir kuzatuvchanligi, haqiqatparvarligi va tasviriy-badiiy mahorati bilan kitobxon qalbining tub-tubiga yetib boradigan, rom etadigan satrlarni qog'ozga tushiradi. To'g'ri, Asqar Mahkamning uslubi boshqa ijodkorlarnikidan farqli ravishda qora chizgilarga boy. U faqat hayotning go'zalligini madh etib she'r yozadigan shoirlardan emas. Ammo shunday bo'lsa ham, chirkin illatlarga nisbatan nafratni uyg'otib, insonni ulardan uzoqlashtiradi. Aslida, haqiqiy shoirning farzi ham, qarzi ham insonlarni to'g'ri yo'lga boshlash hisoblanadi. Darhaqiqat, Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dostonining qahramoni bo'lgan yigit bir xatosi tufayli do'zaxga buyuriladi. Do'zaxga borish oldidan otasi bilan ko'rishadi. Padari uning do'zaxiy bo'lganligini eshitib hayron bo'ladi va nima uchun bunday bo'lganligini so'raydi. Shunda yigit shoir sifatida yomon fe'lli odamlarni ezgulikka boshlay olmaganligini, atrofdagi zulmlarga befarq bo'lib, o'z tinchini o'ylaganligini sabab qilib ko'rsatadi. Asqar Mahkam esa bu asar qahramonining yo'lidan bormaydi. Aksincha, jamiyatdagi, insonlardagi nuqsonlarni ochiq-oydin o'z ijodida oshkor qiladi. Uning lirik qahramoni adolatsizliklarga duchor bo'lgan, azob chekkan holatda tasvirlanadi. She'rlardagi psixologizm va pafos ham shunga mos ravishda namoyon bo'ladi.

**XULOSA.** Asqar Mahkamning lirik qahramonining ham ko'nglda dard-u hasratlari, qadrdonlari insoniyatning bergan ruhiy azoblari saqlanib qolgan. U insonlarning bir-biriga bergan zaxmatlari, yetkazgan zulmlaridan ma'nan qiynaladi. Butun ruhiyati larzaga keladi. Shoirning she'riyati insonlarga ko'zgu tutadi. Ularni o'qir ekan, she'rxon beixtiyor o'ziga "Men qanday insonman?" degan savolni beradi. Bu esa o'z-o'zini isloh qilish, vijdonni uyg'otish uchun asos bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asqar Mahkam. Bu ishq edi. -Toshkent, 2017-y.
2. Komilov N. Tasavvuf. -Toshkent, 2009-y.
3. Oripov A. Jannatga yo'l. -Toshkent, 1980-y.
4. "Yoshlik" jurnali. -Toshkent, 2018-y. 10-son.
5. <https://www.islom.uz> internet sayti.
6. [https://t.me/asqar\\_mahkam](https://t.me/asqar_mahkam) telegram kanali

<sup>5</sup> A.Mahkam. Bu ishq edi.T.: 2017-y, 172-bet.

<sup>6</sup> [https://t.me/asqar\\_mahkam](https://t.me/asqar_mahkam) telegram kanali.